

**MIRZO ULUG'BEKNING QOMUSIY OLIM SIFATIDA ILM-FAN RIVOJIGA QO'SHGAN
ВЕВАНО HISSASI ("ZIZHI JADIDI KO'ROGONIY" VA "TO'RT ULUS TARIXI" ASARLARI
MISOLIDA).**

**НЕОЦЕНИМЫЙ ВКЛАД МИРЗО УЛУГБЕКА В РАЗВИТИЕ НАУКИ КАК
ЭНЦИКЛОПЕДИСТА.**

**MIRZO ULUGBEK'S INVALUABLE CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE
AS AN ENCYCLOPEDIST**

Zokirov Zohidjon Toxirjon o'g'li

Namangan to'qimachilik sanoati instituti,

Ijtimoiy – iqtisodiy va sport fanlar kafedrasi assistanti.

Nabiyeva Dilnoza Dilshod qizi

Namangan to'qimachilik sanoati instituti,

3 – kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada Mirzo Ulug'bek tomonidan ilmiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirilishi va o'z faoliyatida falsafa, tarix, mantiq, astronomiya, matematika, tabiatshunoslik huquq bilimlari bilan shug'ullanib, asarlar yozganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Mirzo Ulug'bekning "Ziji jadidi Ko'rogoniy" asari o'z davridagi eng mukammal astronomik asar sifatida tezda zamondosh olimlarning diqqat e'tiborini o'ziga jalb qiladi va ular ijodiga ta'sir ko'rsatadi. Uning qo'lyozmalari tez orada Yaqin va O'rta Sharq, Xitoy va Xindiston olimlari qo'llariga ham yetib boradi.

Аннотация: В статье представлены сведения о развитии научно-философского мышления Мирзо Улугбека и о том, что за свою трудовую деятельность он написал труды, посвященные философии, истории, логике, астрономии, математике, естествознанию и правовым знаниям.

Труд Мирзо Улугбека «Зижи Джадиди Корогоний» как наиболее совершенный астрономический труд своего времени быстро привлекло внимание современных ученых и оказала влияние на их творчество. Его рукописи в скором времени попадают в руки ученых Ближнего и Среднего Востока, Китая и Индии.

Annotation: The article provides information about the development of scientific-philosophical thinking by Mirzo Ulug'bek and the fact that he wrote works dealing with philosophy, history, logic, astronomy, mathematics, natural science and legal knowledge in his career.

Mirzo Ulugbek's work "Zizhi Jadidi Ko'rogoniy" as the most perfect astronomical work of its time quickly attracted the attention of contemporary scientists and influenced their

work. His manuscripts will soon reach the hands of scholars of the Near and Middle East, China and India.

Kalit so'zlar: YUNESKO, Federiko Mayor, "Ziji jadidi Ko'rogonyi", "To'rt ulus tarixi", Amir Temur, Mavlono Ahmad, Qozizoda Rumiy.

Ключевые слова: ЮНЕСКО, Федерико Майор, «Зижи Джадиди Корогони», «История четырёх улусов», Амир Темур, Мавлана Ахмад, Кази-Заде Руми.

Key words: UNESCO, Federico Mayor, "Zizhi Jadidi Korogoni", "History of Four Nations", Amir Temur, Maulana Ahmad, Qazizada Rumi.

KIRISH

Buyuk Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug'bekning o'rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmoqda. Taqdir bu ulug' zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bунyod etgan saltanatning vorisi bo'lislidek o'ta ma'suliyatli vazifa aynan unga nasib etdi. Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi – tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida ulkan shijoat va matonat ko'rsatdi. Bu benazir alloma o'zida minglab yulduzlarning harakatini jamlagan mukammal astronomik jadvalni yaratdi. Ulug'bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma'naviyatining poydevoriga qo'yilgan tamal toshlaridan biri bo'lib, yurtimizda bundan necha zamonlar oldin ilm-fanning rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berilganini ko'rsatadi. "Ziji jadidi Ko'ragoniy" deb nomlangan Ulug'bek astronomik jadvali o'rta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa olimlari orasida keng tarqalgani fikrimizning yaqqol isbotidir..

Bugungi kunda Mirzo Ulug'bek ilmiy merosini o'rganishga doir bir necha dasturlar yaratilmoqda, shu jumladan 2024 yil 12-sentabr kuni "Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug'bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to'g'risida" davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan qaror imzolandi.

ASOSIY QISM

Asli ismi Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek (1394-1449) Amir Temurning Eron va yaqin Sharqqa qilgan besh yillik yurishi paytida Ajam Iroqining Sultonija shahrida 1394-yilda dunyoga keladi. Amir Temur nabirasi Ulug'bekda eng avvalo insonparvarlik, adolat va Vatanga sadoqat fazilatlari bo'lgan. Zotan, insonparvargina kishilar sahiy va adolatli bo'lishi mumkin.

Amir Temur nabirasiga har doim "Toleingda bitilgan bo'lsa hukmdor bo'lursan, ammo kim bo'limgan musulmon bo'l, hech kimsaga haqsizlik qilma, sababsiz ranju ozor yetkazma, to'g'rilik to'nini kiygin. Faqirlar va ojizlarga har qanday sharoitda muruvvat ko'rsat" - deb ta'lim bergen.

Ulug'bek sohibqiron bobosining "Qo'l ostingdagilarni qalbi va ko'nglidan faqat yaxshilik bilan joy top, aks holda quvvatsiz qolursan va unutilarsan"- degan yo'l yo'rig'ini yoshlik

chog'idan botinan va ruhan o'zlashtirib, butun hayoti davomida ularga qat'iy amal qilgan. Bularning hammasi Mirzo Ulug'bekning ilmiy kamoloti va siyosiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.Uning tarbiyasi shaxsan bobosi sohibqiron Amir Temur tomonidan nazorat qilinib, buvisi Saroymulkxonim enagaligida olib boriladi. Mirzo Ulug'bek saroydag'i eng yirik olimlar: Mavlono Ahmad, Qozizoda Rumiya va boshqalardan saboq oladi.Mirzo Ulug'bek ayniqsa, tabiatshunoslik fanlarini, matematika, geometriya, geografiya, kimyo, astronomiyaga oid bilimlarni chuqur egallaydi. Natijada, yigirma yoshlarida o'z davrining yirik olimlaridan biri bo'lib yetishadi. XV asrning boshlariga kelganda Samarqandda falakiyot va riyoziyot fanlari kuchli taraqqiy etadi. Mirzo Ulug'bek asos solgan falakiyot maktabi, falakiyot rasadxonasi va u qurdirgan observatoriya o'sha davrda tabiiy-ilmiy bilimlar taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

Mirzo Ulug'bek bobosi sohibqiron Amir Temur vafotidan keyin temuriyzodalar, mahalliy hukmdorlar, johil shariat peshvolari, xususan ota-bola, shoh va shahzodalar o'rtasida kurashlar oqibatida uning mansabparast o'g'li – Abdullatif tomonidan 56 yoshida 1449-yil 27 oktabrda fojiali o'ldiriladi. U boshlagan ilmiy ishlarni uning shogirdlari: G'iyosiddin Koshiy, Oloviddin Ali Ibn Muhammad Qushchilar va boshqalar davom ettiradi.

Ulug'bekning "Ziji jadidi Ko'rogony" asari: kirish (nazariy qism) va to'rtta katta boblardan iborat. Kirishning o'zi mustaqil to'rt qismni o'z ichiga olib, uning boshida "Qur'on"dan yulduzlar va sayyoralarga taalluqli oyatlar keltirilib, bu bilan astronomik kuzatishlarning zarurligi o'sha davr g'oyaviy talablaridan kelib chiqib asoslanadi.Keyin ilmiy tadqiqotlar qanday maqsadda qaysi olimlar ishtirokida olib borilganligi, ularga muallifning minnatdorligi ilmiy tadqiqot qachon va qanday boshlanganligi,qachon tugaganligi yoritib berilgan. Asarning birinchi bo'limi - «Tarix, ya'ni xronologiyaning ma'rifati» deb atalib, uning o'zi yetti bobni o'z ichiga oladi. Bu boblarda islomda qo'llaniladigan asosiy era-xijriy era bilan sur'yoniy-yunon erasi, ularda keltirilgan sanalar boshqa «jaloliy»erasi, xitoy va uyqur erasi, hind-forsiy eralar bilan solishtirilib, ulardagi mashhur kunlar haqida bahs yuritiladi.

Ikkinci bo'lim – "Vaqtlar va ularga taalluqli narsa va hodisalar" deb atalib, unda asosan, matematika va sferikastronomiya masalalari yoritiladi.Bunda olim ekleptikaning osmon ekvatoriga og'ish burchagining aniq miqdorini topganligi - u 23 daraja 30 daqiqa, 17 soniya ekanligini yozadi. Bu miqdor O'rta asrlar davri uchun nihoyatda aniq o'lchangan miqdor edi.

Nihoyat, «Ziji jadidi Ko'rogony»ning oxirgi to'rtinchi bo'limi, asosan, ikki bobdan iborat bo'lib, u ilmi nujum astrologiyaga bag'ishlangan.

Mirzo Ulug'bekning "Ziji jadidi Ko'rogony" asari o'z davridagi eng mukammal astronomik asar sifatida tezda zamondosh olimlarning diqqat e'tiborini o'ziga jalb qiladi va ular ijodiga ta'sir ko'rsatadi. Uning qo'lyozmalari tez orada Yaqin va O'rta Sharq, Xitoy va Hindiston olimlari qo'llariga ham yetib boradi.

Ulug'bek vafotidan keyin Istanbulga borib yashagan va ijod qilgan shogirdi –Ali Qushchi tufayli XVI asr o'rtalarida bu asar Yevropa olimlari tomonidan lotin, ingliz, fransuz va nemis tillariga tarjima qilinib, nashr etiladi.

Ulug'bekning turkiy tilida yozgan “Tarixi arba' ulus” asari Chingizxon bosib olgan mamlakatlarning XIII-XIV asrlar birinchi yarmidagi siyosiy hayotini o'rganishda muhim manbadir. Avvalambor shuni aytish kerakki, «Tarix-i arba' ulus» Mirzo Ulugbekning ilmiy rahbarligi va shaxsan ishtirokida yaratilgan. Asar 1425-yili yozib tamomlangan. Asar “Ulus-a arba'-yi Chingiziy” (“Chingizylarning to'rt ulusi”) va “Tarixi arba' ulus” (“To'rt ulus tarixi”) nomlari bilan mashhur. Lekin, Ovrupo sharqshunoslari orasida ushbu asarni birinchilar qatori o'rgangan va uning qisqartirilgan inglizcha tarjimasini e'lon qilgan polkovnik Mayls, yetarli asosi bo'Imagani holda bu kitobni “Shajarat ul-atrok” (“Turk (xoqon)larining shajarasi”) deb ataydi. Chuqur va atroflicha o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, asarning faqat Yofas o'g'lon va uning o'g'li Turkxon hamda farzandlari tatar-mo'g'ul bilan turk tabaqalari, shuningdek, ularning podsholarigina “Shajarat ul-atrok” asosida yozgan xolos. Asarning Chingizxonning ulug' ajdodi Buzunjon qoondan va Movarounnahrni XIII-XIV asrning birinchi yarmida idora qilgan¹⁷.

Chig'atoxyon avlodi tarixini o'z ichiga olgan qismi “Ulus-i arba'-yi Chingiziy” yoki “Tarixi arb'a ulus” deb ataladi. Olim o'zining bir qator ilmiy risolalari xususan, Turkiston mo'g'ul bosqinchiligi davrida, Ulug'bek va uning davrida, Ulug'bekning mazkur asaridan manba sifatida foydalangan. Lekin uni muhim tarixiy manbalar qatoriga qo'shmaydi. U bunday deb yozadi: “Shohruhning o'g'li va taxt vorisi Ulug'bek “To'rt ulus tarixi”ni yozgan. Asar o'z nomiga ko'ra mo'g'ullar imperiyasining to'liq tarixini o'z ichiga oladi. Ulug'bekning bu asari bizgacha yetib kelmagan, lekin ba'zi manbalarda, xususan Xondamirning “Habib us-siyar”ida undan olingan parchalar uchraydi. Bu parchalardan ko'rinish turibdiki, mo'g'ullar davlati tarixi Xondamir yashagan davrgacha bayon qilingan.

“Tarix-i arba' ulus”ga bunday munosabatda bo'lislarning sababi ikkita-deb aytadi B.Ahmedov. Birinchidan, jahon kutubxonalarida mazkur asar to'liq-nusxasining saqlanmaganligi va ikkinchidan, XV – XVII asrlarga oid tarixiy qo'lyozma asarlarning hozir ham qoniqarli darajada o'rganilmayotganligidir. Lekin, haqiqat faqat ma'lum mavzuga bag'ishlangan asarlarni bir-biriga qiyoslab o'rganish va ular keltirgan ma'lumotlarni diqqat bilan tekshirish orqaligina aniqlanadi. Asarni yozishda muallif ham ko'plab tarixiy, jug'rofiy asarlardan foydalangan.

Asarning muqaddima qismida o'rta asr tarix ilmida hukm surgan an'anaga ko'ra, Tangri taolo, uning elchisi, payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vassallam va avlodlari sha'niga aytilgan maqtovlar, Odam Atoning yaratilishi hamda islomiyatdan avval o'tgan payg'ambarlar (Shis, Kaynon, Mahloyil va boshqa), Nuh alayhissalom va uning farzandlari tarixi qisqacha bayon qilinadi.

¹⁷ Milliy ensiklopediya. – Т.: Davlat ilmiy nashriyoti. Tom 9. 2003. – B. 78.

Birinchi bobda Turkxon ibn Yofas hamda uning Turkiston zaminda podsholik qilgan avlodi, tatar-mo'g'ul va turk qavmlari hamda podsholari tarixi bayon etilgan¹⁸.

Ikkinci bobda turk-mo'g'ul xalqlarining afsonaviy onasi Alanquva va undan tarqalgan avlod, ya'ni podsholar (Buzunjor qoon, Buqoxon, Dutuminxon, Qobulxon, Boysung'urxon, Barton bahodir, Yasugay bahodir) tarixi, VIII asrda jaloyir qavmi boshliqlarining kuchayib ketishi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi¹⁹.

Uchinchi bobda buyuk Jahongir Chingizxon tarixi bayon etilgan. Ushbu bobda keltirilgan ma'lumotlar ichida asosiyalaridan mo'g'ul qo'shinlarining tuzilishi, Chingizxonning oq rangdagi to'qqiz poyali tug'i, Chingizxon saroyida amalda bo'lgan tartib qoidalar haqidagi ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi²⁰.

Asarning to'rtinchi bobida Chingizxonning ulug' yurti ya'ni Mo'g'uliston bilan Shimoliy Xitoyni idora qilgan vorislari tarixiga bag'ishlanadi. Ushbu bobda Chingizxon vafotidan keyin to Amir Temur zamonigacha Mo'g'ulistonda hukmronlik qilgan 21 hukmdordan 17 tasining tarixi qisqacha bayon etilgan. Rashididdin esa bulardan faqat beshtasining nomini, "Zafarnoma" asari muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy ulardan 14 tasining nomini keltirgan.

Bundan tashqari Chingizxon Qoraqurum qal'asini o'z imperiyasining poytaxtiga aylantiradi. Keyinchalik u ko'chmanchilarning kundalik hayoti va siyosiy ishlarining ko'p qismini qamrab olish uchun uni kengaytirdi. U ayollarni sotishni, o'g'irlilikni, mo'g'ullar o'rtaida urush-janjal qilishni, naslchilik davrida hayvonlarni ovlashni man qilgan. Oila, oziq-ovqat va armiyaga oid qonunlardan tashqari, Chingiz diniy erkinlikni ham qaror qildi va ichki va xalqaro savdoni qo'llab-quvvatladi. U kambag'al va ruhoniylarni soliqdan ozod qilganligi haqida ham ma'lumotlar berilgan[10].

Beshinchi bobda Chingizxonning to'ng'ich o'gli Jo'ixon naslidan bo'lgan 33 xon zamonida Dashti Qipchoq (hozirgi Qozog'iston, G'arbiy Sibir va Volgabo'yи yerlari)ning tarixi bayon qilinadi. Mazkur bobda keltirilgan "o'zbek" etnonimining kelib chiqishiga oid o'ta muhim ma'lumotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki o'zbek xalqining kelib chiqish masalasi hanuzgacha ilmiy jihatdan to'la hal qilinmagan bir muammo bo'lib turibdi. Ilmfanda bu masalaga har xil yondashuvlar va qarashlar mavjud. N.A.Aristov, A.Yu.Yakubovskiy va boshqa chet ellik olimlarning fikricha, "o'zbek" etnonimi Oltin O'rda xoni O'zbekxonning nomi bilan bog'liq. V.V.Grigorev va A.A.Semyonovlar esa Dashti Qipchoqning sharqiy qismida istiqomat qilgan turk-mo'g'ul qavmlarini o'zbeklar deb ataydilar. G.Vamberi, G.Xovors, Pellolarning fikricha, Dashti qopchoqda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalari o'zlarini erkin tutganliklari tufayli o'zbeklar ya'ni o'z-o'ziga beklar deb atalgan bo'lishlari mumkin.

¹⁸ Ulug'bek.M.T To'rt ulus tarixi. – T.: Cho'lpon. 1994. – B. 7.

¹⁹ Ulug'bek.M.T To'rt ulus tarixi. – T.: Cho'lpon. 1994. – B. 8.

²⁰ Ulug'bek.M.T To'rt ulus tarixi. – T.: Cho'lpon. 1994. - B. 9.

Asarning oltinchi bobida Eron bilan Ozarbayjon ustidan qariyb bir asr mobaynida (1256-1353) hukmronlik qilgan Elxoniylar davlati ularning ichki ahvoli va tashqi siyosatiga oid bir talay qimmatli ma'lumotlar bor. Bundan tashqari Elxoniylar davlatining Misr, Shom, Suriya, Oltin O'rda hamda Chig'atoy ulusi bilan bo'lgan siyosiy munosabati haqida ham e'tiborga molik ma'lumotlar uchraydi.

Asarning eng muhim qismi uning yettinchi bobidir. Unda Chig'atoy ulusining Chingizxon zamonidan (1227 y.) to Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi (1370 y.) gacha bo'lgan tarixi hikoya qilinadi. Ma'lumki, Chig'atoy ulusining qariyb 150 yillik (1227-1370) tarixi o'rganilmagan. Bu haqda qo'lyozma manbalarda yetarli ma'lumot bo'lmagligi bunga asosiy sababdir. To'g'ri, Chig'atoy ulusida hukmronlik qilgan xonlar haqida juda qisqa ma'lumotlar Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida, Mahmud ibn Valinning "Bahr ul-asror"ida ham keltirilgan. Lekin "Tarix-i arba' ulus" ularga nisbatan bir qadar to'laroq²¹.

"To'rt ulus tarixi"da keltirilishicha, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston yerlari ham Chingizxonning hayotligidayoq Chig'atoxonga berilgan. Bu haqida asarda quyidagilarni o'qiymiz: "Chingizxon G'uronzamin mamlakati hokimligini, Koshg'ar sarhadlaridan uyg'urlar yeri chegarasigacha; Jayhun daryosi adog'igacha yastangan yerlar: Eron bilan Turon oralig'idagi Balx, Badaxshon, Qobul, G'aznin, Sind daryosigacha bo'lgan yerkarning ko'p qismini shu suyukli farzandi Chig'atoxonga berdi"²².

XULOSA

Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi insonparvarlik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda. Buyuk ajdodlarimiz tarixini o'rganish, ular qoldirib ketgan buyuk tarixiy merosdan faxrlanish O'zbekistonda yashayotgan har bir insonning burchidir. Mirzo Ulug'bekning o'zi tomonidan yaratilgan —To'rt ulus tarixi asari bugungi kunda biz uchun buyuk bir tarixiy manba sifatida qancha qadirlasak arziyi. Bugun jahon hamjamiyati Mirzo Ulug'bek yaratib ketgan buyuk madaniyatini o'rganar ekan, barcha millat vakillari, olimlar bobomiz Mirzo Ulug'bekka, uning salohiyatiga, bilimiga tan bermay iloji yo'q.O'z rasadxonasida ijod qilib, 1018 ta yulduzning muvozanatini aniqlagan. "Ziji Ko'ragoniy" asari nazariy-kirish qism va to'rtta katta bobdan iborat. Birinchi bobida muallif xitoylar, hindlar, greklar, eroniylar va boshqa xalqlarning kalendarlari bilan tanishib, o'z fikrlarini bildiradi. Ikkinci bobda esa amaliy astronomiya, uchinchi bobda sayyoralar nazariyasi va to'rtinch bobda astrologiya haqida o'z fikrlarini bildirib o'tadi. Uzoq yillar kuzatish va ilmiy tekshirishlar natijasida Ulug'bek fazodagi sir-asrорlarni ijod qilishda yil, hafta va kecha-kunduzlarni belgilashda ulkan yutuqlarga erishadi. O'zidan oldin o'tgan Eotosfen, Gipparx, Ptolomey, Battoniy, ibn Yunus, Nosiriddin Tusiy va boshqa astronomlarning bu sohadagi yutuqlarini ortda qoldirgan edi.

²¹ Ulug'bek.M.T To'rt ulus tarixi. – T.: Cho'lpon. 1994. – B. 10.

²² Ulug'bek.M.T. To'rt ulus tarixi. – T.: Cho'lpon. 1994. - B. 297

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. — Sharq. 1998
1. Karimov I.A. —Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, Toshkent.
2. B.Ahmedov. Amir Temur. Tarixiy roman. T.1995
3. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.1997
4. B.Shalotonin. Gorod na beregu Zarafshana. «Kizilkum». 1999
5. F.Qosimov. Temuriylar davrida Buxoro. Buxoro. 1996
6. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi.Toshkent. «Cho'lpon» nashriyoti. 1993
7. Nizomiddin Shomiy. «Zafarnoma» T. 1996 y.
8. Temur tuzuklari. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
9. Zokirov, Z. . (2024). MO'G'UL IMPERYASINI TASHKIL ETILISHI VA DASTLABKI BOSHQARUV TIZIMI. *Наука и инновация*, 2(27), 137–140. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/46334>